e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper *https://doi.org/10.67227/17jekk02*

QUR'ON QIROATINING LINGVISTIK TA'SIRI

Quldashev Nizomiddin Axmadaliyevich
Vahobova Oyshaxon Abdulatif qizi
Farg'ona davlat universiteti, dotsent, PhD.
Farg'ona davlat universiteti, talaba.
e-mail: kuldashev.nizomidin@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-9761-441X
e-mail: oyshaxonvahobova9@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/

Annotatsiya.

Ushbu ilmiy maqolada Qur'on qiroati tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari hamda fonetik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan yoritilgan. Tadqiqot davomida Qur'on qiroatidagi tovushlarning artikulyatsiyasi, maxraj va sifat al-huruf xususiyatlari, madd hodisasi hamda tovush davomiyligi zamonaviy artikulyatsion va akustik fonetika yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, vaqf va ibtido, intonatsiya, ritm kabi prosodik xususiyatlarning qiroatning fonetik va mazmuniy tashkil etilishidagi o'rni ko'rib chiqilib, an'anaviy tajvid va qiroat tavsiflarini zamonaviy lingvistik terminlar hamda akustik tahlil vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Qur'on qiroatini fonetik, fonologik va prosodik jihatlarning o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladigan murakkab lingvistik hodisa sifatida o'rganish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: artikulyatsion, akustik, assimilyatsiya, nazalizatsiya, fonetika, fonologiya, maxraj, qiroat.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОРАНИЧЕСКИХ ЧТЕНИЙ

Кулдашев Низомиддин Ахмадалиевич
Вахобова Ойшахон Абдулатиф кизи
Ферганский государственный университет, доцент, PhD.
Ферганский государственный университет, студентка.

Аннотация.

В данной научной статье рассматривается чтение Корана (кираат) с точки зрения современных направлений лингвистики и фонетических исследований. В ходе исследования на основе подходов современной артикуляционной и акустической фонетики проанализированы артикуляция звуков при чтении Корана, особенности махраджа (места образования звуков) и сифат аль-хуруф (характеристики звуков), явление мадд (удлинение звуков), а также длительность звучания. Кроме того, рассмотрена роль таких просодических особенностей, как вакф и ибтида (остановка и возобновление чтения), интонация и ритм, в фонетической и смысловой организации коранического чтения. Освещены возможности описания традиционных правил таджвида и кираата с использованием современной лингвистической терминологии и инструментов акустического анализа. Результаты исследования показывают, что чтение Корана может изучаться как сложное лингвистическое явление, в котором проявляется взаимосвязь фонетических, фонологических и просодических аспектов.

Ключевые слова: артикуляционный, акустический, ассимиляция, назализация, фонетика, фонология, махрадж, кираат.

LINGUISTIC ANALYSIS OF QUR'ANIC RECITATIONS

Quldashev Nizomiddin Axmadaliyevich
Vahobova Oyshaxon Abdulatif qizi
Fergana State University, Associate Professor, PhD.
Fergana State University, Student.

Abstract.

This scientific article examines Qur'anic recitation (Qira'at) from the perspective of modern linguistic approaches and phonetic research. The study analyzes the articulation of sounds in Qur'anic recitation, the characteristics of makhraj (places of articulation) and sifat al-huruf (phonetic attributes of letters), the phenomenon of madd (sound prolongation), and sound duration using approaches from modern articulatory and acoustic phonetics. Furthermore, the role of prosodic features such as waqf and ibtida (pausing and resuming recitation), intonation, and rhythm in the phonetic and semantic organization of Qur'anic recitation is examined. The article also explores the possibilities of describing traditional Tajweed and Qira'at principles through modern linguistic terminology and acoustic analysis tools. The findings demonstrate that Qur'anic recitation can be studied as a complex linguistic phenomenon characterized by the interrelationship

of phonetic, phonological, and prosodic aspects.

Keywords: articulatory, acoustic, assimilation, nasalization, phonetics, phonology, makhraj, Qira'at.

Kirish. Qur'on qiroatlarini lingvistik jihatdan o'rganish, avvalo, qiroat jarayonidagi tovushlarning artikulyatsiyasi, davomiyligi, o'zaro ta'siri hamda prosodik xususiyatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Zamonaviy fonetika artikulyatsion, akustik va eshitish fonetikasi vositalari orqali qiroatdagi tovush hodisalarini ilmiy tavsiflash imkonini beradi. Qiroat va lingvistika o'rtasidagi aloqaning muhim jihatlaridan biri tajvid qoidalarining tovush hosil bo'lishi, tovush davomiyligi va tovushlarning o'zaro ta'sirini tartibga solishi bilan bog'liq. Shu sababli qiroatdagi fonetik hodisalarni zamonaviy fonetik terminlar yordamida tavsiflash mumkin [9]. Qiroat an'analarining fonologik va morfologik xususiyatlari lingvistik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biridir. Van Puttenning al-Dani qiroatlariga bag'ishlangan tadqiqotida yetti qiroat an'anasining umumiy fonologik va morfologik xususiyatlari alohida ko'rib chiqiladi [7].

ASOSIY QISM VA TAHLIL Maxraj harf tovushining nutq apparatida hosil bo'ladigan o'rnini bildiradi. Qiroat fonetikasi nuqtayi nazaridan maxrajning aniq belgilanishi tovushning to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlash bilan bog'liq. Arab tovushlarining hosil bo'lishida og'iz va halqum bo'shliqlari kabi artikulyatsion a'zolar ishtirok etadi. Xususan, alif, vov va yo tovushlari al-jawf (og'iz va halqum bo'shlig'i) bilan, ayrim undosh tovushlar esa al-halq (halqum), al-lisan (til), ash-shafatan (ikki lab) va al-khayshum (burun bo'shlig'i) bilan bog'lanadi. Zamonaviy artikulyatsion fonetika tovushning nutq apparatida qanday hosil bo'lishini o'rganadi. Shu jihatdan an'anaviy maxraj tavsiflari asosida tovush hosil bo'lish jarayonini artikulyatsion jihatdan o'rganish mumkin [9]. Al-Fozan klassik arab tili tovushlari tavsifida maxraj bilan bir qatorda tovushning artikulyatsiya usuli ham alohida mezon sifatida qo'llanganini ko'rsatadi [2, 4–5]. Klassik arab tilshunoslari undoshlarni hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi va sonorant tovushlar kabi guruhlarga ajratgan; shuningdek, jarangli va jarangsiz tovushlar o'rtasidagi farqni ham qayd etgan. Shu tasnif maxrajning faqat tovush hosil bo'ladigan sohani emas, balki havo oqimining to'silishi yoki torayishi hamda tovush paydo bo'lishidagi artikulyatsion mexanizmni tavsiflash bilan birgalikda qaralganini ko'rsatadi [2, 15–19].

Qur'on qiroatidagi tovush hodisalarini zamonaviy fonetik nuqtayi nazardan tavsiflashda o'zbek tilshunosligidagi nazariy fonetika tadqiqotlari muhim metodologik asos bo'la oladi. H. Jamolxonov fonetik birliklarni bir necha jihatdan – fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional aspektlarda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, fizik-akustik aspektda tovushning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligi kabi xususiyatlar o'rganilishi qayd etiladi [5, 81]. Bu yondashuv Qur'on qiroatidagi tovushlarni faqat an'anaviy tajvid tavsiflari asosida emas, balki ularning obyektiv fonetik ko'rsatkichlari orqali ham tahlil qilish imkonini beradi. Qiroatdagi tovushlarning akustik xususiyatlarini o'rganishda asosiy ton chastotasi bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham alohida ahamiyatga ega. Jamolxonov tovush balandligini un paychalari tebranish chastotasi bilan bog'laydi va nutqda tonning yuqorilashi yoki pasayishi melodikani yuzaga keltirishini ko'rsatadi [5, 81–82]. Muallif tebranish chastotasining urg'u, intonatsiya, tembr va temp kabi boshqa akustik vositalar bilan munosabatga kirishishini ham qayd etadi. Mazkur nazariy qarash Qur'on qiroatidagi ohang konturlarini va F0 o'zgarishlarini akustik jihatdan tahlil qilish uchun nazariy asos sifatida qo'llanishi mumkin. Tovush kuchi ham qiroatning akustik tavsifida alohida parametr sifatida qaralishi mumkin. Jamolxonov tovush kuchini intensivlik bilan bog'lab, uni tebranish amplitudasi va nutq jarayonidagi havo oqimi bilan izohlaydi [5, 82]. Shu sababli Qur'on qiroati namunalarida intensivlikning o'zgarishini o'lchash an'anaviy tavsiflarda qayd etilgan talaffuz kuchi bilan akustik signal o'rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi. Biroq bu o'rinda o'zbek tilidagi fonetik tavsiflarni Qur'on qiroatining maxsus tajvid kategoriyalari bilan tenglashtirish emas, balki umumiy fonetik o'lchov vositalari sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Qur'on qiroatining ustsegment xususiyatlarini tahlil qilishda Jamolxonovning prosodik birliklar haqidagi qarashlari ham muhimdir. Muallif fonetikada tovush va bo'g'inni segment birliklar, urg'u va intonatsiyani esa supersegment birliklar sifatida tavsiflaydi; supersegmental fonologiyaning birliklari sifatida bo'g'in, urg'u va intonema ko'rsatiladi [5, 90–91]. Jamolxonov intonatsiyani og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni sifatida izohlab, uning tarkibida ovoz toni, melodika, ritm, tembr, pauza va temp kabi supersegment elementlar ishtirok etishini qayd etadi [5, 170–171]. Ushbu nazariy tasnif Qur'on qiroatidagi vaqf va ibtido, ohang harakati, ritm, temp va pauza kabi hodisalarni zamonaviy prosodik terminlar yordamida tavsiflash uchun metodologik asos bo'lishi mumkin. Bunda vaqf yoki ibtido o'zbek tilidagi intonatsiya hodisasining aynan o'zi sifatida emas, balki pauza va prosodik tashkil bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinadigan qiroat hodisasi sifatida qaraladi. Shuningdek, Jamolxonov nutq ritmini urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning muayyan tartibda qo'llanishi bilan bog'laydi hamda tempni tovushlarning talaffuziga sarflanadigan vaqt bilan izohlaydi [5, 171]. Mazkur yondashuv Qur'on qiroatida tovush va bo'g'in davomiyligi, pauzalar oralig'i hamda qiroat sur'atini akustik jihatdan o'lchashda qo'llanishi mumkin.

Sifat al-huruf Qur'on qiroatidagi arab tovushlarining fonetik va fonologik xususiyatlarini tizimli ravishda tavsiflash imkonini beradigan muhim tushunchalardan biridir. Ushbu xususiyatlar tovushlarning o'ziga xos artikulyatsion belgilarini aniqlash bilan birga, ularni qiroat jarayonida aniq va farqlangan holda talaffuz qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sifat al-huruf faqat alohida tovushlarning xususiyatlarini tavsiflash vositasi bo'lib qolmay, balki arab tilidagi tovushlarni fonetik jihatdan tasniflash va ularning Qur'on oyatlaridagi qo'llanish xususiyatlarini o'rganish uchun ham asos bo'la oladi. Mazkur yondashuvda tovush sifatlari muayyan harflarning qiroatdagi fonetik namoyon bo'lishini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, Yusuf, Othman va Md Hussain tomonidan Qur'onning Taloq surasi 2–3-oyatlaridagi arab undoshlarining fonetik tahlilida tovushlarning talaffuz xususiyatlari tizimlashtirilgan. Tadqiqotda tovushlarning pastroq talaffuz qilinishi (istefol), balandroq talaffuz qilinishi (isti'lo), og'ish xususiyati (inhiraf), oraliqlik xususiyati (bayniyya), sakrash xususiyati (qalqala) va yumshoqlik xususiyati (raxova) kabi belgilari tasniflangan. Mazkur oyatlar tarkibida pastroq talaffuz qilinish xususiyati 43 ta holatda (38,7 foiz), oraliqlik xususiyati 8 ta (7,2 foiz) va yumshoqlik xususiyati 6 ta (5,4 foiz) qayd etilgan.

Ushbu natijalar mazkur ikki oyatdagi undosh tovushlarning fonetik xususiyatlarini ularning talaffuzdagi o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tasniflash va miqdoriy jihatdan aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi [10].

Madd Qur’on qiroatida cho‘ziq unlilarning davomiyligini belgilovchi fonetik hodisa bo‘lib, klassik arab tilidagi qisqa /a, i, u/ va cho‘ziq /aː, iː, uː/ unlilarining qarama-qarshiligiga asoslanadi; qiroat me’yorlarida asosiy cho‘ziqlik ikki harakat davomida, ikkilamchi cho‘ziqlik esa fonetik muhitga ko‘ra ikki harakatdan olti harakatgacha amalga oshirilishi qayd etilgan [8]. Mohamed Yeou tomonidan olti nafar professional qori ijrosida to‘rt va olti harakatli cho‘ziqlik turlari o‘rganilib, tahlil uchun Qur’onning turli sura va oyatlaridan olingan cho‘ziq /aː, iː/ unlili hamda ularga mos qisqa unlili so‘zlar tanlangan; yozuvlar 11 025 Hz chastotada raqamlashtirilib, unli davomiyligi Praat dasturida to‘lqin shakli va spektrogramma asosida o‘lchangan. O‘lchov natijalariga ko‘ra, qorilar o‘rtasida madd davomiyligi nisbatan barqaror saqlangan, ayrim saudiyalik qorilar ijrosida esa cho‘ziqlik me’yoriy qiymatdan ortiq davom etgan [8]. Faiqoh va Masrikhi tomonidan to‘rt nafar xalqaro qori ijrosidagi madd turlarining davomiyligi ham akustik-fonetik yondashuv va Praat dasturi yordamida o‘lchanib, ikki harakatli madd uchun 0,4–0,8 soniya, 2/4/6 harakatli guruh uchun 0,7–2,7 soniya, 4–5 harakatli guruh uchun 1,3–2 soniya va 6 harakatli guruh uchun 2,1–3,7 soniya oralig‘idagi davomiyliklar aniqlangan [3].

Qur’on qiroatining prosodik tuzilishida pauza (vaqf), qayta boshlash (ibtido), ohang va ritm kabi ustsegment xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Anhar Mohamed Kamel Abdel Tavab tomonidan Misr radiosida Qur’onni tartibli o‘qigan besh qori – Muhammad Siddiq al-Minshaviy, Mustafo Ismoil, Mahmud Xalil al-Husayriy, Mahmud Ali al-Banno va Abdulbasit Abdul Samad ijrosidagi Anfol surasi oyatlari tahlil qilinib, qorilar o‘rtasidagi vaqf va ibtido farqlarining mazmuniy ta’siri o‘rganilgan; tadqiqotda ovoz yozuvlarini tahlil qilish uchun Praat dasturidan ham foydalanilgan [1]. Alaaddin Saliho‘g‘lu esa Qur’on qiroatidagi ohangni ovoz balandligining ko‘tarilishi va pasayishi orqali yuzaga keladigan prosodik hodisa sifatida tavsiflab, uning hissiy-ifodaviy, sintaktik-tuzilmaviy va mazmuniy vazifalarini ajratadi; muallifning xulosasiga ko‘ra, ohang o‘zgarishi qo‘shimcha leksik birlik kiritmasdan gap mazmuniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur manbada Qur’on qiroatidagi tartil prosodik jihatdan ohang, urg‘u, vaqf va ritm kabi unsurlarga rioya qilish bilan bog‘lanadi [6]. Akustik jihatdan qiroat ritmini tavsiflashda esa Abdulbasit Abdul Samad ijrosidagi Qur’onning 10 ta surasi asosida o‘tkazilgan tahlilda Praat dasturidan foydalanilib, chastota, kuchlilik, unli tovush sifati va davomiyligi hamda ohang konturi o‘lchangan; mazkur namunalarda o‘rtacha unli tovush davomiyligi 29,02 millisekundni tashkil etgani qayd etilgan [4].

XULOSA. Qur’on qiroatini lingvistik jihatdan o‘rganish qiroat jarayonida yuzaga keladigan tovush hodisalarini artikulyatsion, akustik, fonologik va prosodik jihatlardan tizimli ravishda tavsiflash imkonini beradi. Tahlil natijalari maxraj va sifat al-huruf tushunchalarining zamonaviy artikulyatsion fonetika bilan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi: an’anaviy qiroat tavsiflarida tovushning hosil bo‘lish o‘rni va xususiyatlari izohlangan bo‘lsa, zamonaviy fonetika ushbu jarayonlarni nutq a’zolari, artikulyatsiya usuli va tovushning fizik parametrlari orqali tavsiflash imkonini beradi. Taloq surasi 65:2–3-oyatlaridagi sifat al-huruf tahlili esa bunday fonetik xususiyatlarni nafaqat tavsifiy, balki miqdoriy jihatdan ham o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Madd hodisasining akustik tahlili qiroatdagi unli tovush davomiyligini obyektiv o‘lchash imkonini beradi. Qiroat namunalarida Praat dasturi yordamida davomiylik, chastota, kuchlilik va boshqa akustik parametrlarning o‘lchanishi an’anaviy tajvid mezonlarini eksperimental fonetika nuqtayi nazaridan tavsiflash uchun muhim asos yaratadi. Shuningdek, vaqf va ibtido, intonatsiya hamda ritm qiroatning faqat segmental tovushlar bilan cheklanmasligini, balki ustsegment xususiyatlar ham uning lingvistik tashkilida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, vaqf va ibtido holatlarining mazmuniy jihatdan tahlil qilinishi hamda intonatsiyaning sintaktik va semantik vazifalar bilan bog‘lanishi qiroatning fonetik shakli va mazmuniy tuzilishi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish imkonini beradi. Shunday qilib, Qur’on qiroatini zamonaviy lingvistik yondashuv asosida o‘rganish an’anaviy qiroat va tajvid tavsiflarini artikulyatsion fonetika, akustik fonetika, fonologiya va prosodika tushunchalari bilan qiyosiy tahlil qilishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdel Tawab A. M. K. The Semantic Impact of Differences in Quranic Recitations by Radio Reciters in Egypt between Pause (Waqf) and Resumption (Ibtida): An Applied Study in Surah Al-Anfal // Majallat al-Zahra. – 2023. – Vol. 33, № 2.
2. Alfozan A. I. Assimilation in Classical Arabic: A Phonological Study: PhD dissertation. – University of Glasgow, 1989.
3. Faiqoh M. D., Masrukhi M. Penerapan Fonetik Akustik dalam Bacaan Mad Alquran (Studi Kasus pada Qiraat Qari Internasional) // CMES: Jurnal Studi Timur Tengah. – 2019. – Vol. 12, № 1. – DOI: https://doi.org/10.20961/cmes.12.1.34869.
4. HosseiniFar M. et al. Acoustic and Prosodic Features in Quran Recitation with a Focus on the Recitation by Master Abdulbasit // The Voice Foundation, 54th Annual Symposium. – 2025.
5. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Salihoglu A. The Phenomenon of Tanghim (Intonation) in Qur’anic Recitation in the Context of the Relationship Between Sound and Meaning // Journal of Eskisehir Osmangazi University Faculty of Theology. – 2025. – Vol. 12, № 1. – DOI: https://doi.org/10.51702/esoguifd.1559758.
7. Van Putten M. al-Danis Al-Taysir fi al-Qiraat al-Sab: A Translation with Linguistic Commentary. – Cambridge, UK: Open Book Publishers, 2026. – XXXI. – DOI: https://doi.org/10.11647/OBP.0475.
8. Yeou M. Lengthening in the Quranic Recitation: Duration and Pitch Contours // Proceedings of the 15th International Congress of Phonetic Sciences (ICPhS). – Barcelona, 2003.
9. Younis E. The Phonetic Dimension of the Qur’anic Readings in the Framework of Modern Phonetics // Kur’an ve Sunnet Arestirmalari Dergisi. – 2026. – Vol. 6, № 1.
10. Yusuff M. S. S., Othman Y., Md Hussain M. N. Phonetic Analysis of Arabic Letters (Sifat al-Huruf) in the 1000 Dinars Verse // Environment-Behaviour Proceedings Journal. – 2025. – Vol. 10, SI33. – DOI: https://doi.org/10.21834/e-bpj.v10iSI33.7034.